



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1




www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

2/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



2/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Касимова Н.Ф.	Когнитивные процессы восприятия оригинала в процессе перевода	3
Abdullayev X.D.	Romanda qahramon psixologiyasi	7
Dedakhanova D.T., Uktamova N.N.	Jeyms Oldridjning “Spit mak-phining haqiqiy hikoyasi” romanidagi qahramon taqdiriga muallifning munosabati	12
Marupova M.U.	“The pen mightier than sword”- social satire in Jonathan Swift’s “A modest proposal,,	16
Isakjanova Sh.M.	Abduvali Qutbiddin ijodida vatan va istiqloq madhi	23
Pardayeva G.B.	Bureaucracy in Kafka’s literary work	27
Adigezalova M.N.	Chronotope in the works of Huseyn Javid	32
Ahrorova N.A.	English mythologemes: a multifaceted exploration	37
Hayitov Sh.A., Shoyimova G.Sh.	Ilk dehqon obrazi	41
Ibragimova G.R.	The philosophical concept of the tree in J.R.R. Tolkien's works	46
Kaxarova M.Y.	A literary analysis of Jack London’s “Martin Eden”	50
Khayrullayeva N.N.	Ecological writing in modern american and modern uzbek literature: a comparative analysis	57
Mustoqova S.U.	O.Genrining “The gift of magi” (“Sehrgarlar tuhfası”) hikoyasida metakognitsiya tushunchalarini asoslash	61
Ramazonova G.Ch.	O‘zbek nasrida evrilish shakllari	66
Samiyeva D.K.	Folklor motivlari orqali milliy ruhni aks ettirish: Pushkin va H.Olimjon dostonlari tahlili	70
Raximova G.A.	Ferdinand Dyushenning “Tamilla” asarida ayol obrazi ifodalanishining ijtimoiy xususiyatlari: metamorfoza va transformatsiya	74
Xajiyeva F.M., Sharipova P.Sh.	Tara Kempbelning mitti hikoyalarida minimalizm va chuqur ma’no uyg‘unligi	78
Shirinova D.H.	Hazrat Navoiyning “Dil daftari” xususida	83
Turakulova U.A.	Tohir Malikning “Charxpalak” qissasida qo‘llangan o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari	87
Xayrulloeva S.L.	Travmatik realizmning badiiy adabiyotda janr sifatida shakllanishi	92
Зиёдуллоева А.А.	Красный как кровь, белый как снег, черный как ворон: цветовые символы женственности в мифах и сказках	96
Artikov A.X.	The features and classification of allusion (literary and poetic	100

	allusion)	
Musaev I.X.	Zamaxshariyning "Al-Mufiyd" asarida noto'g'ri fe'llarning zamonlarda o'zgarish mezonlari	104
NAVOIY GULSHANI		
Turayeva M.T.	«Odamki bashar nasli silkiga erur payvand»...	109
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Жаҳонов Т.Х.	Шимолий Бақтриянинг кушонлар даври муҳофаа иншоотлари борасида айрим мулоҳазалар (буржлар мисолида)	113
Кличев О.А.	Бухоро қўшбеги девонхонаси дафтарларининг таҳлили	119
Toshpo'latov M.Z.	Uchquduq tumani yoshlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning tarixiy tahlili (2017-2024)	124
Narziyeva R.R.	“Xan daryosi bo'yidagi mo'jiza” yoxud “Koreys mo'jizasi”ning yaratilish asoslari	132
Fozilov M.A.	Uchinchi renessans poydevorini yaratishda jadidchilik siyosiy harakatining roli	137
Hayitov Sh.A., Elmurodova N.B.	1977-1978-yillarda “vatan” jamiyatining xorijdagi o'zbeklar va ularning uyushmalari bilan aloqalari tarixidan (arxiv manbalari asosida)	141
Abdullayeva D.A.	Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ularni ta'mirlash amaliyoti tarixidan	146
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
To'ychiyeva R.A.	Hindiston tashqi siyosatining asosiy tamoyil va yo'nalishlari	151
Shukurov A.K.	O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konseptual-huquqiy asoslari	166
Xodjimuratova D.S.	“Veloyate Fakih” Eron teokratik boshqaruv modelining asosi sifatida	174
Усманова Х.Х.	Национальная стратегия целей устойчивого развития Республики Узбекистан и многостороннее сотрудничество	180
Musayev M.T.	Missionerlikning noan'anaviy ko'rinishlari va ularni namoyon bo'lish shakllari	184
Turdiyev B.S.	Yangi O'zbekiston davlat siyosatini amalga oshirishda rivojlanish strategiyalarining roli	189
MUNOSABAT *** REFLECTION *** ТОЧКА ЗРЕНИЯ		
Ahmedov A.R., Axmadov A.H.	Buxoroni sharif qilgan adiblarga xiyobon qilsak	196

BUXORONI SHARIF QILGAN ADIBLARGA XIYOBON QILSAK

Ahmedov Atoullo Raxmatovich,

Buxoro davlat universiteti professori, f.f.n.

a.r.ahmedov@buxdu.uz

Axmadoy Amonkeldi Hasanovich,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d

amonaxmatov@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0003-3556-6779>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroda yetishib chiqqan adiblar siymosini abadiylashtirishga qaratilgan birqator takliflar berilgan. Bunda adiblar xiyoboni majmuasini yaratib, tarkibida muzey tashkil qilish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalarni taqdim qilingan. Maqoladagi g'oyalar Buxoro viloyatida tarixiy obyektlar sonini oshirishga va turizmni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, adabiy muhit, adabiy harakatchilik, muzey, adiblar muzeyi, adiblar xiyoboni, Ibn Sino, Fitrat, Axmatov, tarixiy turizm.

ЕСЛИ МЫ ПРОЛОЖИМ АЛЛЕЮ МУДРЕЦАМ, ПРОСЛАВИВШИМ БУХАРУ

Аннотация: В данной статье представлен ряд предложений, направленных на увековечение образа писателей, родившихся и творивших в Бухаре. При этом даны рекомендации и указания по созданию комплекса Аллеи литераторов и организации в его составе музея. Идеи статьи нацелены на увеличение количества исторических объектов в Бухарской области и развитие туризма.

Ключевые слова: Бухара, литературная среда, литературное движение, музей, музей писателей, аллея писателей, Ибн Сина, Фитрат, Ахматов, исторический туризм.

LET'S MAKE AN ALLEY FOR THE WRITERS WHO MADE BUKHARA FAMOUS

Abstract. This article presents several proposals aimed at immortalizing the legacy of writers who emerged in Bukhara. It provides recommendations and guidelines for creating a Writers' Alley complex, including the establishment of a museum within it. The ideas presented in the article are directed towards increasing the number of historical sites and developing tourism in the Bukhara region.

Keywords: Bukhara, literary environment, literary movement, museum, writers' museum, writers' Alley, Ibn Sina, Fitrat, Akhmatov, historical tourism.

Ilmiy izlanishlar sababi bilan Milliy arxivga borayotib, albatta, Adiblar xiyobonidan o'taman. Naqadar so'lim maskan. Naqadar go'zal go'sha. Daraxtlar, qushlar, ayniqsa, chopqillab yurgan olmaxonning borligi kishi ruhiyatini ko'taradi. Bog'ning markazida joylashgan muhtasham bino – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining binosi. Mahobatli qilib qurilgan inshoot va uning atrofi doimo yoshlar bilan gavjum. Tashkilot rahbariyati, uyushmaga a'zolar, nomzodlar vatan xizmatini bekam-u ko'st ado qilib kelmoqdalar.

Bog' oralab ko'plab haykallarni sayr qiluvchilarning dili yayraydi. Ular haqidagi xotiralarni eslab, bir qadar mahzunlik sezish ham chin insoniylikka xosdir. Navoiy, Bobur, Ogahiy, Furqat, Muqimiy, Berdaq, Ibrohim Yusupov, Faynberg, Oybek Bari el tanigan, el suygan, el ardoqlagan ijodkorlar. Nafaqat O'zbekiston Respublikasida, balki jahonda taniqli adiblar.

Mening qalbimda esa boshqacha mahzunlik bor. Yurtimizning barcha hududlaridan taniqli ijodkorlar chiqqan. Shunday ekan, Ibn Sino qani? U ham yaxshigina she'rlar yozgan. 1) Eron shoirlari antologiyasida fors shoiri sifatida kiritilgan. 2) Tojik shoirlari tazkirasida tojik shoiri sifatida ro'yxatga olingan. Eron, tojik, o'zbek o'z shoiri deb da'vo qilmoqda. Jahonda kitoblari nashr qilingan, haykallar o'rnatilgan. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan xabarlarida go'yoki Ibn Sino talash bo'layapti. Naqadar baxtli olim-a! O'lgandan keyin ham nomi aziz! Yoxud hamon o'lkasi noma'lum adib. Kishining qadari g'alati bo'lishini Ibn Sino misolida ko'rish mumkin. Tirikligida vatandan yiroqni kezdi. Avval Xorazm, so'ngra Eron, Hamadon, hamon sarson sargardon. Mayli, shoirligi tabibligidan keyin deb andisha qilamiz.

Adiblar xiyobonini oxirigacha kezamiz Shayxzoda, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya Xullas, birorta buxorolik adib yo'q. Qisqa so'rov. Nega? Buxorodan yaxshi ijodkor chiqmaganmi? Ular yaxshi yoza

olmaydimi? Yoki Abdulloh Rudakiy, Abu Ali ibn Sino, Qul Ubaydiy, Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitratlarning taniqli ijodkorlar ekanliklari xayollaridan ko'tarildimi!? 8 gektarlik maydonda jadidlar, millat oydinlari deb alqayotganimizda Abdurauf Fitratga 4 metr joy topilmadimi!?. Men yuqorida aytganim ibn Sino tirikligida ro'shnolik va makon qidirgan edi. Hamon taqdiri shunday. Abdurauf Fitrat tirikligida oqibat ko'rmadi. O'lganida alohida qabr uchun ikki metr yerni ravo ko'rmadilar, hamon shu taqdir uning qismatida namoyon. Jadidlar qismati ham talash bo'lishiga hech kim kafolat bermaydi. Biz izlanamiz o'rganamiz, ularning vatan, millat oldidagi xizmatlarini e'tirof etganimizda yana bir ega chiqib qolish ehtimoldan yiroq emas.

Xiyobonda nomi abadiylashtirilganlar orasida Ahmad Donishdek ma'rifatparvarning ham o'rni bo'lishi kerak edi chamamda. Ilk yangiliklarning tashabbuskori ham aynan u bo'lganini tadqiqotchilar takror va takror yozishayotgan bir davrda aytganlari faqat qog'ozda qolmasa yaxshi bo'lar edi.

Abdurauf Fitratga xiyobondan joy yetmagan bo'lsa, Buxorodan maydon topilar? Ushbu ishlar, albatta, Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda qilinadi. Ularning taklif va tavsiyasi bilan bo'ladigan vazifalar sirasiga kiradi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo'limi bormi? Bo'lsa neler bilan ovora? Nega harakat qilmayapti? Shu masalada taklif bilan uyushmaning Buxoro viloyat bo'limiga borish uchun bilguvchilardan so'raganimda 3 ta manzilni berishdi. Shundan bildimki, bo'limning o'zi sarson. O'zida tayinli manzil, arziqli xona yo'q ekan. Bo'lim kotibi va adabiy maslahatchilarning turli topshiriqlar bilan bandligi, yoshlar, havaskorlardan keladigan maktublarga vaqtida javob berishni mushkullashtiryapdi. Kam ishchi kuchiga ko'p vazifalar. Shunda ham ulgurib, ijodkorlar bilan shug'ullanayotganiga tasanno.

Yurtboshimiz eslaganlaridek, "Buxoroni Buxoroyi sharif deydi". Buxoro azaldan olim-u fozillar, yozuvchi va shoirlar yurti. Bu yerda har bir kimsa borki, uning adabiyotga moyilligi bor. Nazm va nasr bolalar qalbiga ona allasi, tabiat havosi, ota mehri bilan singib bo'lgan. Shunday ijodkorlardan ko'plari havaskor sifatida o'z qoralamalarini bo'limga yetkazadilar. Bo'lim xodimlari vaqt topdi deguncha ularning mashqlariga maslahatlar yozib qaytarishga intiladilarki, bu borada harakatlari tahsinga loyiq. Shu bo'lganiga shinam xonalar, keng imkoniyatlar bo'lsa yanada a'lo bo'lar edi. Ushbu bo'lim yana bir vaqt ajratib, hukumatga ayrim takliflar kiritishi kerak deb umid qilamiz.

Bizning bu borada bir qator takliflarimiz bor. Jumladan:

Buxoroda bog' yaratsak. Yangi bir bog'. Uning markazida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo'limining binosi tashkil qilinsa.

Binoda tashkiliy xonalar bilan birga ijodkorlar uchun fayzli ijod xonalari, mushoira xonalari, konferensiya zali tashkil qilinsa. Buxoro davlat universitetining yosh ijodkor, viloyatning Nilufar va har bir tumanning adabiy to'garaklari o'z hisobotlari, mashqlari, yig'ilishlarini shu binoda o'tkazsalar.

Adiblar qayerda desa aniq manzil beriladigan, havaskorlar mashqlarini ko'tarib borganda kutib oladigan, ularni qo'llab-quvvatlaydiganlar tayin bo'lsa naqadar go'zal ishlar bo'lar edi, chamamda.

Bog' oralab adiblar, jadidlar, olimlarning haykallar va byustlar qad rostlasa bu ilm ahliga qilingan hurmat bo'lar edi. Keyingi avlod uchun esa ishtiyoq uyg'otishi tayin.

Binoning bir necha xonasi muzeyga ajratilsa. Unda ko'p ming yillik Buxoro ilmiy-adabiy muhiti tasvirlangan eksponatlar joylansa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Buxoroda adiblar va tarixiy siymolar uchun muzey ochish fikri juda yaxshi deb o'ylayman! Adiblar O'zbekiston tarixida madaniy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirgan kishilardir. Ular orasida pedagoglar, yozuvchilar, davlat arboblari va islohotchilar ko'p bo'lgan. Buxoroda adiblar muzeyini ochish nafaqat madaniy, balki ilmiy, siyosiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Bunday muzey Buxorodagi tarixiy va madaniy merosni saqlashga yordam beradi, shuningdek, yosh avlodni adiblarning ishlaridan ilhomlantiradi. Muzeyda adiblarning hayoti, ijodi va ularning zamonaga qo'shgan hissasi haqida ko'plab eksponatlar bo'lishi mumkin: kitoblar, fotosuratlar, qo'lyozmalar, mebellar va boshqa tarixiy buyumlar.

Bu loyihani amalga oshirish uchun quyidagilarni hisobga olish kerak bo'ladi:

1. Tadqiqot va eksponatlar: Adiblar haqida keng qamrovli tadqiqot olib borish va muzeyda namoyish qilish uchun zaruriy materiallarni to'plash.

2. Joylashuv: Muzey uchun tarixiy va markaziy joy tanlash, shuningdek, uning ommaviylik darajasini oshirish.

3. Moliyalashtirish: Muzeyni ochish va uni barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun kerakli mablag'larni topish.

4. Ommaviylashtirish: Muzeyning maqsadlarini va ahamiyatini aholiga tushuntirish va uni ochishdan oldin madaniy tadbirlar tashkil qilish.

Buxoro uchun bunday muzey milliy tarix va madaniyatni saqlash, yoshlarni bilim bilan ta'minlash va shaharni turistik jihatdan rivojlantirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Agar Buxoroda aynan adiblar va tarixiy siymolar muzeyi ochilsa, bu tarixiy shaxslarning ishlarini va ularning madaniy, ilmiy va ijtimoiy sohalarga qo'shgan hissasini yoritish uchun juda yaxshi imkoniyat bo'ladi. Adiblar muzeyi, shuningdek, yosh avlodga o'rnatilgan bo'lishi va Buxoroning tarixiy ahamiyatini oshirishi mumkin.

Adiblar va tarixiy siymolar muzeyini yaratish — tarixiy, madaniy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan bir loyiha. Muzeyda adabiy harakatchilik o'tmishini, islohotlar va yoshlar ta'limidagi o'zgarishlarni keng yoritish uchun bir nechta muhim jihatlar hisobga olinishi kerak. Quyidagi elementlar adiblar muzeyining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim bo'ladi:

1. Muzeyning konsepsiyasi va maqsadi.

Ta'lim va madaniyat tarixi: Muzeyda adiblar va tarixiy siymolar faoliyatlari va ularning jamoatchilikdagi o'rni haqida keng tushuncha berish. Bu maqsadlarni ta'lim, adabiyot, siyosat va iqtisodiyot sohalaridagi islohotlar bilan bog'lash.

Zamonaviylik va milliy ma'naviyat: adabiy harakatchilikning milliy o'zlikni saqlash, madaniyatni rivojlantirish va yoshlarni zamonaviy bilimlarga yo'naltirishda qanday o'rin tutganini ko'rsatish.

2. Ekspонатlar va arxiv materiallari.

· Adiblarning hayoti va faoliyati haqida ko'plab tarixiy hujjatlar, fotosuratlar, qo'lyozmalar, shaxsiy buyumlar va kitoblar bo'lishi kerak. Masalan, Rudakiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Ubaydiy, Turdi Farog'iy, Sodiq Jondoriy, Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Toshpo'lat Hamid, Jamol Kamol, Ne'mat Amin va bugunning eng taniqli ijodkorlariga tegishli shaxsiy arxiv materiallari muzeyda muhim ekspонатlar bo'lishi mumkin.

· Ta'lim tizimiga oid ekspонатlar: adiblar tomonidan tashkil etilgan maktablar, yangi o'quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar haqida materiallar. Masalan, yangi ta'lim metodikasi, xullas, adiblarning pedagogik faoliyati tarixi.

· Media: Adiblarning asarlari, ularning adabiy merosi va madaniy ta'sirini ko'rsatuvchi video roliklar, filmlar.

3. Interaktiv elementlar va vizual ko'rsatmalar.

· Interaktiv ekspонатlar: Muzeyda interaktiv texnologiyalar (ekranlar, multimedialar) yordamida adiblarning faoliyatini jonli tarzda yoritish. Masalan, jadidlarning maktablarini ko'rsatuvchi 3D vizualizatsiya yoki ularning asarlarini audio shaklda tinglash imkoniyati.

· Virtual ko'rgazmalar: O'quvchilar yoki tashrif buyuruvchilar uchun turli interaktiv ko'rgazmalar tashkil etish. Bu ko'rgazmalar orqali yangi tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

4. Muzeyning dizayni va joylashuvi.

· Tarixiy va zamonaviy arxitektura uyg'unligi: Muzeyning tashqi va ichki dizayni Buxoroning tarixiy obidalariga mos bo'lishi, ammo bir vaqtning o'zida zamonaviy va jozibali bo'lishi kerak. Muzeyning joylashuvi shaharning markazida yoki turistlar uchun qulay bo'lgan hududda bo'lishi kerak.

· Muzeyning yopiq va ochiq qismlari: Tarixiy obidalar, haykallar yoki badiiy asarlarni namoyish qilish uchun ochiq maydonlar yaratish.

5. Ta'lim va madaniy tadbirlar.

· Ma'ruzalar va seminarlar: Muzeyda muntazam ravishda adabiy harakatchilik va o'sha davrning ijtimoiy o'zgarishlari haqida ilmiy ma'ruzalar yoki seminarlar tashkil qilish.

· Yoshlarni jalb qilish: O'quvchilar, talabalar va yoshlar uchun maxsus ta'lim dasturlari va ijodiy ishlarni amalga oshirish.

6. Muzeyning ommaviylashtirilishi va marketingi.

· Tashrif buyuruvchilarni jalb qilish: Muzeyning ahamiyatini yoritish va turizmni rivojlantirish maqsadida marketing kompaniyalari va onlayn platformalarda reklama qilish.

· Xalqaro hamkorlik: Boshqa mamlakatlar va muzeylar bilan hamkorlik o'rnatish va muzeyning xalqaro darajada tanilishini ta'minlash.

Bu o'rinda yana bir muammoni ham aytib o'tish kerak. Gruziya poytaxti Tbilisida Mtasminda (panteon), Vatanimiz poytaxida "Chig'atoy" qabristonida asosan fan, san'at, adabiyot namoyandalari dafn etilgan. Bu joylarga kelgan sayyohlar ushbu manzilgohlarni ziyorat qilishadi, Fikrimizcha, Buxoro shahrining shimoliy qismida ana shunday ziyoratgoh (qabriston) tashkil etilishi kerak. Bu ishni turistik loyihalar doirasida amalga oshirish mumkin.

Adiblar muzeyi nafaqat tarixni saqlash, balki yosh avlodni o'qitish, madaniyatni rivojlantirish va ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash uchun ajoyib maydon bo'ladi. Shuningdek, muzeyning dizayni va mazmuni zamonaviy va jozibali bo'lishi, odamlarni o'ziga jalb qilishi kerak. Agar hukumat takliflarimizni inobatga olib

REFLECTION

tashkiliy choralarni ko'rsa ular uchun tarixiy siymolarimiz oldidagi hurmat bajo keltirilgan, kelajak avlod uchun katta motivatsiya bo'lgan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR:

1. Akhmatov A. *History of Bukhara literary environment in sources*. Texas Journal of Philology, Culture and History. <https://zienjournals.com/index.php/tjpch>. 35-37.
2. Akhmatov A. *Press and literary environment*. Western European Journal of Linguistics and Education. Volume 2, Issue 7, July, 2024. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/article/view/1287>.
3. Axmatov A. *Buxoro adabiy muhiti tarixiga chizgilar (XX asr boshlari Til va adabiyot. Ilmiy-metodik elektron jurnal. – Toshkent. 2024-yil 4-son. – B.7-9.*
4. Axmatov A. (Akhmatov A) *XX asr 50-70 yillarida Buxoro adabiy muhiti tarixi. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, Impact Factor:5.947 ASI Factor = 1.7. April 2022. –B.399-403.*
5. Axmatov A. *O'zbekiston SSSR yozuvchilar uyushmasining Mustaqillik arafasidagi faoliyati (Buxoro bo'limi misolida). Pedagogik akmeologiya. (1)2024. –B.7-10.*
6. Ахматов А. *Ёзувчилар Уюшмаси Бухоро бўлимининг ташкил қилиниши ва дастлабки фаолияти. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил №5). –Б.29*